



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023, № 5

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **D.R. Babayeva, X.Sh. Ochiлова**
Maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab hamda oilada pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etish muammolari
- 9 **L.B. Beknazarova**
Shaxs innovatsion-ijodkorligini o'rganishning ilmiy-amaliy tajribasi
- 15 **G.A. Sanoyev**
Uzluksiz ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirishda ajdodlar meroidan faydalanish imkoniyatlari
- 20 **E.O. Sharipov**
OTMDa ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni uzluksizlik tamoyili asosida tashkil etish bosqichlari
- 26 **I.H. Pinyozov**
Iqtisodiy bilim berish asosida talabalarda tejamkorlik xususiyatlarini uzluksiz tarbiyalash
- 31 **K.T. Suyarov**
Ta'lim jarayonida laboratoriya mashg'ulotlari – tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishda vosita sifatida
- 36 **N.O. Temirov**
Integrativ yondashuv asosida kimyo fani uzluksizligini tashkil etish metodikasi
- 41 **R. Musurmonov, M. Musurmonov**
O'quvchilalarda darsga ijobiy munosabatchilikni shakllantirish jarayonlarini klaster yondashuvlari asosida tashkil etish va boshqarish
- 45 **Sh. T. Yakubjonova**
Ekologiyadan amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda uzviylik tamoyili pedagogik muammo sifatida
- 49 **B.P. Djuraeva**
Работа специалистов в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной среды
- 53 **P. Djuraeva**
Виды и возможности информационных технологий
- 59 **P.U. Toprejanova**
Формирование орфографической грамотности у студентов нефилологических вузов

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 63 **X. Kadirov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida talabakarning mediakompetentligini ko'rsatkichlarining motivatsiyalari rivojlanishi

MA'NAViy TARBIYA

- 68 **Z.A. Xolmatova**
Bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi
- 72 **B.S. Axmadaliyev**
Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini pedagogik klaster yondashuv asosida takomillashtirish
- 75 **S.B. Karimov**
Bolalar musiqiy idrokini rivojlantirishda fanlararo integratsiyalashuv
- 80 **B.T. Paxjanov**
Формирование и развитие системы духовно-нравственного воспитания девочек подросткового возраста
- 87 **G.A. Berdalieva**
Umumta'lim maktablari o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning pedagogik strategiyasi va konseptual asosi
- 93 **G.I. Sattarova**
Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'smirlar hissiy-irodaviy sohalarining rivojlanishi
- 99 **D. Zulfarova**
Методы управления ДОУ
- 101 **B. Xusanov**
Oilalarda o'smirlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 105 **M.X. Abelqosimova**
Uzluksiz ta'lim zharayonida talabalarini ilmiy-taqot saloqiyatni shakllantirish – pedagogik muammo sifatida
- 110 **Z. Karimova**
Реализация воспитательного аспекта в процессе обучения иностранному языку старших школьников
- 114 **Z. Abdurazzoqova**
Когнитивный метод музыкального развития детей дошкольного возраста
- 118 **N.S. Alimova**
O'smirlar yoshdagi o'quvchilarda jismoniy tarbiyaga qiziqishni shakllantirish
- 122 **B.B. Mamajabov**
Bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligini interaktiv tavsifi



O'QUVCHILARDA DARSGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI KLASTER YONDASHUVLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

R. MUSURMONOV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
«Maktab menejmenti» kafedrasida dotsenti, p.f.n.,*

M. MUSURMONOVA,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
«Boshlang'ich ta'lim kafedrasida» katta o'qituvchisi*

В статье рассматриваются основные направления формирования позитивного отношения учащихся общеобразовательных школ к процессу обучения и даются рекомендации.

Ключевые слова: учащиеся, урок, позитивный настрой, кластер, образовательный менеджмент, современное образование, эффективность обучения, совместная деятельность.

Maqolada umumiy o'ra ta'lim maktablari o'quvchilarining dars jarayoniga ijobiy munosabatlarini shakllantirishning yo'l-yo'riqlar to'g'risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'z: o'quvchilar, dars, ijobiy munosabat, klaster, ta'limni boshqarish, zamonaviy ta'lim, ta'lim samaradorligi, hamkorlikdagi faoliyat.

The article discusses the guidelines for the formation of positive attitudes of students of general secondary schools to the learning process and gives recommendations.

Key words: students, lesson, positive attitude, cluster, educational management, modern education, educational effectiveness, cooperative activity.

Ta'lim muassasasini o'zaro hamkorlikdaboshqarishni nimadan boshlamoq kerak? Savollarni aniqlashtirib, tahlil etib bo'lgandan so'ng, Maktab rahbari boshchiligidagi ishchi guruhi oldiga: zamonaviy ta'lim muassasasini innovatsion boshqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha quyidagi maqsadlarni qo'yishni lozim deb topdik:

– ta'lim tizimida mavjud ehtiyoj va muammolar tahlili maqsad qo'yishning bosh omili bo'lib xizmat qilishi, bunda dastlabki imkoniyatlar va vositalar, zahiralarni hisobga olinishi kerakligi;

– maqsadlar muhim muammolarni hal qiladigan darajada dolzarb bo'lishi lozimligi;

– maqsadlar murakkab, biroq aniq bo'lishi, maktabning yaqin kelajakdagi rivojlanishini ifodalashi shartligi;

– maqsadlar qanchalik puxta (istalgan natijaning aniq darajasi va unga erishish



muddati ko'rsatilgan holda) shakllantirilgan bo'lsa, ularga erishish shuncha oson kechishi;

– maqsadlar tashxislovchi, rag'batlantiruvchi, izlanishga va tashabbuskorlikka undovchi xarakterga ega bo'lishi lozimligi;

– maqsadlar maktab oldida turgan vazifalarga mos kelishi kerakligi;

– hamkorlikdagi faoliyat maqsadlari uning barcha subyektlariga ma'lum, ular uchun tushunarli holda qabul qilinganligi jamoaviy faoliyat va maqsadlar birligini ta'minlashi;

– kichikroq aniq maqsadlar yirikroq va uzoq muddatli maqsad hamda intilishlarga bo'ysundirilishi maqsadga muvofiqligi talablarni hisobga olishi lozimligini ko'rsatmoqda.

O'quvchilarning hayotiy ehtiyojlariga mos va samarali usullarni qo'llash orqali bilimlar taqdim etilishi, ko'nikmalar hosil qilinishi, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishga pedagogik hamda boshqaruv jihatdan shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.



Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy samaradorlikka erishish – ta'lim muassasasini zamonaviy boshqarishning innovatsion tamoyillari bilan belgilanadi. Ta'lim muassasasini innovatsion boshqarishning klaster metodi tamoyillari Respublikamizda amal qilayotgan ta'limning yangi modeli – ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan yangilash bilan bir qatorda, ta'lim muassasasi rahbarlari o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltiradi. Bu esa o'quv muassasalarini rivojlantirishning asosiy omilidir.

Ta'lim sifatini yaxshilash, uni boshqarishning davr talablari asosida tashkil etish mexanizmlarini yaratish hamda ilmiy jihatdan asoslash pedagogika fanining muhim masalalaridan biridir. Ushbu masalani har tomonlama o'rganish va ta'lim muassasasini ilmiy metodik boshqarish modelini tashkil etish hamda amaliyotga



tatbiq etish nihoyatda zarur. Uning asosida ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni innovatsion boshqarish masalasiga tamomila yangicha yondashgan holda faoliyat ko'rsatish yotadi. Kreativ pedagogik munosabatlarning vujudga kelishi o'quvchi shaxsiga tabaqalashgan yondashuv, ya'ni ta'lim jarayonini individuallashtirish tamoyilini ro'yobga chiqarishni talab etadi.

Mazkur tamoyillar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda:

Innovatsion pedagogik munosabatlarning vujudga kelishi o'quvchi shaxsiga tabaqalashgan yondashuv, ya'ni ta'lim jarayonini individuallashtirish tamoyilini ro'yobga chiqarishni talab etadi. Mazkur tamoyillar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda:

– har bir o'quvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni rivojlantirish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, tanlagan yo'nalishlari, shaxsiy sifatleri, aqliy-intellektual xususiyatlarini aniqlash;

– har bir o'quvchining ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o'quv topshiriqlarini tayyorlash;

– o'quvchilarning tahsil olish sur'ati va bilimlarni o'zlashtirish sifatini ortishiga erishish;

– o'quvchilarning tahsil olishga bo'lgan qiziqishi, ehtiyoji va mayllari kuchayishini ta'minlash.

– ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Maktablarda ta'lim jarayonini ilmiy-metodik asosda tashkil etishning muhim jihati sifatida fan o'qituvchilarining bilim, malaka, kasb mahorati doirasida zamon talablariga muvofiq faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlovchi uzluksiz metodik xizmatni vujudga keltirish zarur.

Maktabni ilmiy-metodik asosda boshqarish – o'qituvchi va o'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, maktab hayotining barcha jabhalarida o'qituvchi, o'quvchilar, oila va jamoat tashkilotlarining ishtirokini ta'minlash hamda ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uy-g'unlashtirgan holda yo'lga qo'yish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarishning asosiy yo'nalishlari, tamoyillari, talablarini hisobga olgan holda, o'qitish qonuniyatlari va prinsiplarini aniqlash, o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari, rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini ta'minlashning tarkibiy qismlari, darajalari, ko'rsatkichlari, unga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik omillarni belgilash va mazkur tayyorgarlik darajasini rivojlantirish mazmuni, metodi, vosita va shakllarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash orqali davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, ijodkor va ijtimoiy faol, ma'naviy boy, g'oyaviy-siyosiy yetuk rahbarlarni tayyorlashga erishish. Buning uchun esa uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish texnologiyalarini yaratish zarur.



Maktab rahbarlarining vazifalari, huquq va burchlari, mas'uliyatlari ilmiy asosda belgilab berilishi va to'la bajarilishi natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari ilmiy-metodik asosda boshqariladi. Bu borada rahbarlarning e'tiborini o'quv jarayonini innovatsion boshqarishni rivojlantirish, takomillashtirish va ularni nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni oldingi o'rinlarga qo'yishni talab etiladi.

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;
- har bir o'quvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni rivojlantirish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, tanlagan yo'nalishlari, shaxsiy sifatleri, aqliy intellektual xususiyatlarini aniqlash;
- har bir o'quvchining ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o'quv topshiriqlarini tayyorlash;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti «Maktab menejmenti» kafedrasida professor-o'qituvchilari «Maktab laboratoriya» dasturi doirasida Chirchiq shahar 20 va 21 umumta'lim maktablarida «O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini klaster yondashuvlari asosida tashkil etish va boshqarish» mavzusi yo'nalishida maktab rahbarlari, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, amaliyotchi psixologlar, ota-onalar, mahalla vakillari ishtirokida seminar-treninglar, davra suhbatlari, savol-javoblar, anketa so'rovlari orqali ta'lim muassasasini hamkorlikda boshqarish hamda o'quvchilar ta'lim samaradorligini ta'minlash muammolarini ijobiy hal etishda, dars intizomiga rioya qilishda ota-onalarning mas'uliyatlarini yanada oshirish maqsadida nazariy va amaliy faoliyat olib borayotganliklari e'tiborga sazavordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son farmoni, 2018-yil 5-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi «Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. PF-5712-son. 2019-yil 29-aprel. www.lex.uz.
3. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical yeduction cluster: content and form. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 252. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.202Q.01.81.46>
4. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. -Toshkent, «Vorishnash-riyot». 2006.
5. Musurmonov R., Musurmonova M. O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlarini klaster asosida o'rganish. O'quv-metodik qo'llanma. T: «ZEBO PRINT»MCHJ, 145 b.